



AKMALXONOV Akmalxon
O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
Arab tili va adabiyoti al-Azhar
kafedrası dotsenti v.b., PhD

ИСЛОМ – ЕЗГУЛИК ВА ТИНЧЛИК ДИНИ

ISLAM IS A RELIGION OF BENEVOLENCE AND HARMONY

ИСЛАМ – РЕЛИГИЯ ДОБРА И МИРА

Annotatsiya: Islom – bu insoniyat tarixida eng keng tarqalgan dinlardan biri bo'lib, u ezgulik, tinchlik, tenglik, adolat va xayr-ehson qadriyatlariga asoslangan. Bu muqaddas din ta'limotlariga ko'ra, insonlar bir-birlariga nisbatan mehribonlik, rahm-shafqat va hurmat bilan munosabatda bo'lishlari kerak. Islom dini musulmonlar uchun hayot tarzini belgilaydi, ularning e'tiqodlari, axloqi va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarini shakllantiradi.

Kalit so'zlar: Islom, ezgulik, tinchlik, Qur'oni karim, hadis, zamonaviy jamiyat, bag'rikenglik, tolerantlik.

Abstract: Islam is one of the most widespread religions in human history, founded on the values of goodness, peace, equality, justice, and charity. According to the teachings of this sacred religion, people should treat each other with kindness, compassion, and respect. The Islamic religion defines the way of life for Muslims, shaping their beliefs, morality, and socio-economic relations.

Keywords: Islam, goodness, peace, Holy Quran, hadith, modern society, tolerance, tolerance.

Аннотация: Ислам – одна из самых распространенных религий в истории человечества, основанная на ценностях добра, мира, равенства, справедливости и благотворительности. Согласно учениям этой священной религии, люди должны относиться друг к другу с добротой, состраданием и уважением. Ислам определяет образ жизни мусульман, формируя их веру, мораль и социально-экономические отношения.

Ключевые слова: ислам, добро, мир, Коран, хадисы, современное общество, толерантность.

KIRISH

Islom dini insoniyat tarixida muhim o'rin tutadigan jahon dinlaridan biri bo'lib, milliardlab insonlarning qalbini zabt etgan. Islomning asosiy ta'limotlaridan biri bu tinchlik va ezgulikka chaqirishdir. Qur'oni karim va Rasululloh (s.a.v.) ning hadislarida bu g'oya aniq va ravshan bayon etilgan. Mazkur maqolada Islom dinining tinchlik va ezgulik dini ekanini ilmiy adabiyotlarga asoslanib batafsil tahlil qilamiz.

ASOSIY QISM

Islom dinining eng asosiy tamoyillaridan biri – ezgulik va tinchlikka undashdir. Qur'oni karim va Rasululloh (s.a.v.)ning hadislarida bu mavzuga keng o'rin ajratilgan. Qur'oni karim ezgulik va tinchlikka da'vat qilib, quyidagi oyatlarda o'z aksini topadi. Alloh ta'alo Oli Imron surasi, 104-oyatida musulmon ummatini sifatlab shunday deydi: “وَلْتَكُنْ مِنْكُمْ أُمَّةٌ يَدْعُونَ إِلَى الْخَيْرِ وَيَأْمُرُونَ بِالْمَعْرُوفِ وَيَنْهَوْنَ عَنِ الْمُنْكَرِ وَأُولَئِكَ هُمُ الْمُفْلِحُونَ – (Sizlardan ezgulikka chaqiradigan, yaxshilikka buyurib, yomonlikdan qaytaradigan bir ummat bo'lsin. Ana o'shalar, o'zlari najot topguvchilardir.)” [1; 43]. Islom ummati uchun ezgulik qilish va yomonlik qilmaslik e'tiqod darajasiga ko'tarilishiga asos o'laroq quyidagi oyatni keltirish mumkin, u: “يُؤْمِنُونَ بِاللَّهِ وَالْيَوْمِ الْآخِرِ وَيَأْمُرُونَ بِالْمَعْرُوفِ وَيَنْهَوْنَ عَنِ الْمُنْكَرِ – وَيُسَارِعُونَ فِي الْخَيْرَاتِ وَأُولَئِكَ مِنَ الصَّالِحِينَ – Ular Allohga, oxirat kuniga iymon keltiradilar, yaxshilikka buyurib, yomonlikdan qaytaradilar va ezguliklarga shoshiladilar. Ana o'shalar ahli solihlardandir.” (Oli Imron surasi, 114-oyat) [2; 350]. Doimo yaxshilikka chorlash va yomonlikdan qaytarish chiroyli tarzda, hikmat bilan amalga oshirish lozimligi Alloh ta'alo “ادْعُ إِلَى سَبِيلِ رَبِّكَ بِالْحُكْمِ وَالْمَوْعِظَةِ الْحَسَنَةِ – Robbingning yo'liga hikmat va yaxshi mav'iza ila chorla.” (Nahl surasi, 125-oyat) mazkur oyatidan bilib olish mumkin [3; 352]. Shu bilan bir qatorda yaxshilikka chorlov va yomonlikdan qaytariq musulmonlarning kundalik ajralmas vazifasi ekanligi uqtiliradi.

Islom dini ezgulik va tinchlikka undaydi. Ezgulik – insonlar o'rtasidagi munosabatlarni yaxshilash, o'zaro hurmat va mehr-oqibat ko'rsatish, haq va adolatni o'rnatish demakdir. Tinchlik esa – urush va zo'ravonlikdan yiroq

bo'lish, barcha insonlar o'rtasidagi kelishuv va hamjihatlikni ta'minlashdir. Rasululloh (s.a.v.) ning hadislarida bunga katta ahamiyat beriladi. Hadislarda Islom dinidan boshqa dinga e'tiqod qiluvchilarning ham hurmatini joyiga qo'yish targ'ib qilinadi.

Islomda ezgulik insonning fikr, so'z va amalda Alloh taoloning amrlariga rioya qilishi, ya'ni yaxshi ishlarni qilishi va yomon ishlardan tiyilishi deb ta'riflanadi. Qur'oni karim ezgulikka targ'ib qilib, yomonlikdan qaytarishga buyuriladi. Masalan, Moida surasining 100-oyatida: *قُلْ لَا يَسْتَوِي الْخَبِيثُ وَالطَّيِّبُ وَلَوْ أَعْجَبَكَ كَثْرَةُ الْخَبِيثِ فَاتَّقُوا اللَّهَ يَا أُولِي الْأَلْبَابِ لَعَلَّكُمْ تُفْلِحُونَ* – Sen: “Agar nopokning ko'pligi seni ajablantirsa ham, pok bilan nopok teng bo'la olmas, ey aql egalari, Allohga taqvo qiling, shoyadki najot topsangiz”, deb ayt.”, deyiladi [5; 503]. Bu oyatda ezgulikning yomonlikka qarshi kurashdagi ahamiyati ta'kidlanadi. Islomda tinchlik faqatgina jismoniy tinchlikni emas, balki qalb tinchligi, jamiyatdagi barqarorlik va insonlar o'rtasidagi o'zaro hurmat va mehr-oqibat munosabatlarini ham anglatadi. Qur'oni karimda “salom” so'zi qirq martadan ko'proq takrorlanib, tinchlikning ahamiyati ta'kidlanadi. Rasululloh (s.a.v.) ham tinchlikni sevish va unga intilishga buyurganlar.

Islomda ezgulik deganda, insonga, jamiyatga va tabiatga yaxshilik qilish, odamlar o'rtasida adolatni o'rnatish, yetim-beva va kambag'allarga yordam berish kabi fazilatlar tushuniladi. Islom insonni ezgu amallarga buyurib, yomon ishlardan qaytaradi.

Rasululloh (s.a.v.) hadislarida ham ezgulikka buyurib, yomonlikdan qaytarishga targ'ib qilingan. Masalan, bir hadisda Rasululloh (s.a.v.): “Imonning eng yaxshisi – Allohga ishonish, odamlarga yaxshilik qilish va yomonlikdan qaytarishdir”, deganlar [3; 159]. Bu hadisda ezgulikning imonning ajralmas qismi ekanligi ta'kidlanadi.

Islom tinchlik dinidir. Islomda tinchlik faqatgina insonlar o'rtasidagi tinchlikni emas, balki inson va tabiat, inson va o'zi o'rtasidagi tinchlikni ham anglatadi. Qur'oni karimda tinchlikka buyurib, urushdan qaytariladi. Masalan, “Anfol” surasining 61-oyatida: *وَإِنْ جَنَحُوا لِلسَّلْمِ فَاجْنَحْ لَهَا وَتَوَكَّلْ* – (Agar ular tinchlikka moyil bo'lsalar, sen ham moyil bo'l. Va Allohga tavakkul qil. Albatta, U eshitguvchi va bilguvchi zotdir)”, deyiladi [4; 331]. Bu oyatda musulmonlarning boshqa din vakillari bilan tinch-totuv yashashiga targ'ib qilinadi.

Islomning ezgulik va tinchlik g'oyalarining zamonaviy jamiyatdagi ahamiyati hozirgi kunimizda avvalgi vaqtlardan ko'ra juda ham dolzarbdir.

Bugungi kunda dunyoda turli mojaro va nizolar yuz berib turibdi. Buning asosiy sabablaridan biri ba'zi bir guruhlarining Islomni noto'g'ri talqin qilishi va bundan foydalanib o'z manfaatlarini ko'zlashidir. Aslida Islom dini ezgulik va tinchlik dini bo'lib, u zo'ravonlikka va ekstremizmga mutlaqo ziddir.

Ezgulik, hushmuomalilik, bag'rikenglik, go'zal axloqli bo'lish musulmon ahlining ziynati ekanligi, shunday bo'lishga targ'ib sifatida quyidagi hadislarini keltirishimiz mumkin. Ular: “Ezgulik – chiroyli xulqdir” [3; 152]. Mo'minlarning yaxshisi kim ekanligini bildirish uchun quyidagi hadisni keltirish mumkin, u: “Eng yaxshi mo'min – ezgu xulqli mo'mindir” [3; 153].

Dunyo obodligi, rivojlanish, taraqqiyot barcha imkoniyatlar tinchlik bilangina amalga oshadi. Agar tinchlik, hotirjamlik bo'lmasa, ularning birortasi bo'lmaydi.

Rasululloh (s.a.v.) hadislarida abadiy saodatga erishish yo'llarini aytib, shunday dedilar: “Ezgulik qilinglar, chunki ezgulik qilish sizlarni jannatga kiritadi. Allohning yo'lida jid-u jahd qilinglar va og'irlikni yengil qilinglar, sadaqa qilinglar va yaxshilik qilinglar. Alloh yomonlik qiluvchilarni sevmaydi.” [6; 129].

Islom dini ezgulik va tinchlikni yoyishga buyuradi. Bu dinda zo'ravonlik, nafrat va adovatga o'rin yo'q. Islom dinini to'g'ri tushungan kishilar bu dinning ezgulik va tinchlik tamoyillariga amal qiladilar.

Rasululloh (s.a.v.)ning hadislarida ezgulik va tinchlikka targ'ib qilib, adovatdan uzoq bo'lishga va uni yo'q qilishga chorlab, doimo sulhni suyganlar.

Islom dinida ezgulik va tinchlik faqatgina musulmonlar o'rtasida emas, balki barcha insonlar o'rtasida bo'lishi kerak ekanligi ta'kidlanadi. Musulmon kishi barcha insonlarga yaxshilik qilishga, ularning huquqlarini e'tibordan chetda qoldirmaslikka chaqiriladi.

Islom dini terrorizm va ekstremizmga qarshidir. Bu din faqatgina tinchlik va ezgulik yo'lini targ'ib qiladi. Islom dinini noto'g'ri talqin qilib, terrorizm va ekstremizmni amalga oshirish gunoh va haromdir.

Islom dinining tinchlik va ezgulikka chaqirishi quyidagi asosiy jihatlari bilan xarakterlanadi:

Barcha insonlarning tengligi: Islomda barcha insonlar Alloh taoloning bandalari bo'lib, rang-barangligi, millati va irqidan qat'i nazar, hurmat va qadr-qimmatga egadirlar.

Mehr-oqibat va bag'rikenglik: Islom insonlar o'rtasida mehr-oqibat va bag'rikenglik munosabatlarini o'rnatishga buyuradi.

Yetim-beva va kambag'allarga yordam berish: Islom yetim-beva va kambag'allarga yordam berishni eng afzal amallardan biri deb biladi.

Tabiatni asrash: Islom tabiatni asrashga va unga ehtiyot bilan munosabatda bo'lishga buyuradi.

Yuqoridagi ajralib turuvchi jihatlar asosida quyidagi Islom dining tinchlik va ezgulik borasidagi tamoyillarni keltirish mumkin:

Imon va ezgulik: Islomda imon keltirish faqat til bilan aytish emas, balki qalb bilan ishonish va amalda ko'rsatish demakdir. Imon keltirgan inson boshqa insonlarga yaxshilik qilishga, ularga yordam berishga, zulm va nohaqlikka qarshi turishga intiladi.

Yaxshi amallar: Islomda yaxshi amallarning ahamiyati juda katta. Qur'oni karimda yaxshi amallarni ko'paytirishga, yomon amallardan chetlanishga buyuriladi. Yaxshi amal deganda faqat ibodatlargina tushunilmay, balki insonlarga yaxshilik qilish, xayr-sadaqa berish, mehnat qilish kabi barcha ezgu ishlar ham nazarda tutiladi.

Adolat va tenglik: Islom adolat va tenglikka asoslangan dindir. Islomda barcha insonlar teng huquqli va teng mas'uldir. Hech kimning nasli, puli, mansabi ustun qilinmaydi.

Mehr-oqibat: Islom mehr-oqibat, shirin so'z, kechirimlilik kabi fazilatlarga alohida e'tibor beradi. Islom insonlar o'rtasidagi munosabatlarni yaxshilash, bir-biriga yordam berish, mehr-oqibat ko'rsatishga buyuradi.

XULOSA

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, Islom dini – bu ezgulik va tinchlik dinidir. U barcha insonlarga yaxshilik qilishga, ularning huquqlarini e'tibordan chetda qoldirmaslikka chaqiradi. Islom dini ezgulik va tinchlikka asoslangan dindir. Islomning ta'limotlari insonlar o'rtasidagi do'stlik, birlik va hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Biroq, ba'zi bir guruhlar Islomning nomidan noto'g'ri ishlarni qilib, dinimizning obro'siga dog' tushirishga harakat qilishadi. Shuning uchun ham Islomning asl ta'limotlarini chuqur o'rganish va

uning ezgulik va tinchlik dini ekanini barchaga tushuntirish juda muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tafsiri / Tarjima va tafsir muallifi: Abdulaziz Mansur. – Toshkent, 2021. – 626 b.
2. Abu Muzaffar Mansur ibn Muhammad. Tafsir al-Qur'an. – Ar-Riyad, 1997. 511 s.
3. Abdurahmon ibn Kamol Jaloliddin Suyutiy. Ad-Dur al-mansur fi-t-tafsir al-ma'sur. – Bayrut: Dar fikr. 2011. 5-juz. 720 s.
4. Abu Hasan Ali Ibn Muhammad Movardiy. Tafsir Movardiy. – Bayrut, Dar kutub ilmiyya. 2-juz. 524 s.
5. Doktor Vahba ibn Mustafo Zuhayliy. At-Tafsir al-vasit. – Dimashq. 1422 h. 1-juz. 650 s.
6. Muhammad Ali Sobuniy. Sofvatu-t-Tafasir. – Qohira. 1997. 601 s.